

O`SMIR XULQ-ATVORINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARIGA TA`SIR ETUVCHI OMILLARI

Jo‘lmurodov Oybek Asliddin o‘g‘lining

Mirzo Ulugbek nomidagi Milliy Universitet

Psixologiya yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan psixokorreksion treningning ahamiyati keng yoritilgan. Bunda asosan, bugungi zamonaviy psixologiya amaliyotida yoshlar psixologiyasi, xulq-atvori va dunyoqarashida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarni korreksiya qilishda psixoanaliz, kognitiv terapiya, xulq-atvor (individual) terapiyasi, geshtalt terapiya va boshqa terapevtik usullardan samarali foydalanishning psixologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: psixodiagnostika, psixokorreksiya, jinoyat motivlari, jinoiy xatti-harakatlar, psixoanaliz, kognitiv terapiya, xulq-atvor (individual) terapiyasi, geshtalt terapiya, psixodrama, modellashtirish.

KIRISH

Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan muammolarning shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilash, oqilona yechim topish va natijalarni to‘g‘ri baholash hamda ilmiy asosda qarorlar qabul qilish muammolarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, o‘smirlar xulq-atvoridagi salbiy o‘zga- rishlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan psixokorreksion treningning muhim jihat- larini izohlovchi nazariy va metodologik yondashuvlarning ijtimoiy-psixologik omil- larini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar alohida o‘rin tutadi¹.

Mamlakatimizda aholiga, ayniqsa yoshlarga sifatli psixologik xizmat ko‘rsatish, psixologik xizmat faoliyatini boshqarishni muvofiqlashtirish, ta’lim muassasalari bilan profilaktika inspektorlari va jamoat vakillari o‘rtasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish, psixologiya maktabini rivojlantirish hamda psixologik markazlar tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘RQ-406-sen Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar stra- tegiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sen farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagи «Huquqbazarliklar pro- filaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kura- shish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2833-sen qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama- sining 2019 yil 7 iyundagi «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbazar- liklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi»gi 472-sen qarori va ushbu sohaga tegishli boshqa me’yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi². O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

¹ G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. – T.: «Universitet», 2012.

² Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: «O‘zbekiston», 2017. –104-b.

yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «... Jismo- nan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash», shuningdek jamiyatda huquqburzaliklarning oldini olish chora-tadbirlarida «profilaktika inspektorlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha ishlovchi mas’ul xodimlar va jamoatchilik vakillari uchun yoshlar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan ishlash bo‘yicha axborotnomalar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish» kabi vazifalar belgilanib, bu borada o‘smirlarda huquqburzlik va jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasining samarali metodikalarini aniqlash, tashkiliy chora-tadbirlar mazmuni, shuningdek barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ilmiy-psixologik hamda amaliy-tarbiyaviy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi zamonaviy psixologiya amaliyotida yoshlar psixologiyasi, xulq-atvori va dunyo-qarashida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarni kor- reksiya qilishda psixoanaliz, kognitiv terapiya, xulq-atvor (individual) terapiyasi, geshtalt terapiya va boshqa terapevtik usullardan samarali foydalanib kelinmoqda³.

Psixokorreksion dasturni tuzish va uni tadqiqot jarayonida qo‘llashda xulq-atvor terapiyasi (individual ishslash), kognitiv terapiya, psixodrama terapiyasi, Geshtalt terapiya usullaridan foydalanish uchun belgilangan tartib, me’yor va qoidalarga amal qildik. Shuningdek, tadqiqot olib borilayot- gan o‘smirlarning yosh davri va individual psixologik xususiyatlari, o‘qish va kasb egallashi bilan bog‘liq jarayonlar, oilaviy, milliy-madaniy va ijtimoiy-hududiy xususiyatlar ham alohida e’tiborga olindi. Tadqiqotimizda psixokorreksion va rivojlantirish ishlari individual hamda guruhlarda olib borilgani bizga psixokorreksion hamda psixoterapevtik usullardan foydalanishni individual psixoterapiya, guruhiy psixoterapiya va ijtimoiy-psixologik trening (korporativ trening) ko‘rinishlarida amalga oshirish uchun qulaylik tug‘dirdi.

Xulq-atvor terapiyасining samaradorligi asosan uchta omilga bog‘liqdir:
o‘smirning ijtimoiy muhiti (oila, maktab, mahalla-guzar va b.) doirasini nazorat qilish imkoniyati;
o‘smir xulq-atvori, yo‘nalganligi va dunyoqarashidagi salbiy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati;
xulq-atvor terapiyасining (individual yondashuvning) nisbatan aniq yo‘nalganligi, qisqa va qulayligi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yoshlarga oid quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Bugungi kunda jamiyatimizda qaror topgan o‘zaro munosabatlar tizimi, barqaror milliy-madaniy muhit, milliy-psixologik xususiyatlar va uning zamonaviy o‘quv-tarbiya tizimi hamda axborot manbalari, shu kabi boshqa muhim omillar o‘smir yoshlarning «integral men»ida aks etib, uning «Men» konsepsiysi barqaror shakllanishini ta’minlashga qodir ekanligini inobatga olish.

Yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq turli omillar ta’sirini uyg‘un va me’yorli kechi shini: ota-onalar, tarbiyachi-o‘qituvchilar, mahalla-guzar faollari va boshqa tarbiya uchun mas’ullar o‘zaro kengashib, maslahatli hal qilishlari maqsadga muvofiq.

O‘smir ma’naviy qiyofasining shakllanishiga xizmat qiluvchi axloqiy-ma’naviy qiyofani belgilaydigan aqliy, axloqiy, ma’naviy, hissiy-irodaviy sifatlarni shakllan tirishga xizmat qiluvchi o‘quv tarbiyaviy muhitni yuzaga keltirish, o‘z ustida ishslash, faollashtirish usullarini qo‘llash.

³ Tulaganova G.Q. Deviant xulqning psixologik korreksiyasi. – T.: «Universitet», 2014. –150-b.

O'smirlarga xos namunaviy xulq-atvorni egallahsga yo'nalgan o'qituvchi-o'quvchi hamkorligidagi barqaror guruhiy faoliyat motivatsiyasini o'quvchilarda shakllantirish.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik
2. – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: «O'zbekiston», 2017. –104-b.
3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: «Universitet», 2012.
4. Asadov Yu., Musurmanov R. O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy- psixologik hususiyatlari. – T., 2011.
5. Tulaganova G.Q. Deviant xulqning psixologik korreksiyasi. – T.: «Universitet», 2014. – 150-b.
6. Jabborov A.M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. – Qarshi: «Nasaf», 2015. –38-104-b.
7. Shoumarov G'.B. O'zbekiston ta'lim tizimida psixologik xizmat muammolari. - T., 2018. -13-15-b.
8. Lipunova O.V. Psixologiya, diagnostika i korreksiya otklonyayushqegosya povedeniya: Prakticheskoe posobie. - Komsomolsk-na-Amure: Izd-vo Komsomolskogo-na- Amure gos. ped. un-ta, 2012. -b. 65.